



BIR SHE'R XUSUSIDA

Kodirova Guzal Samariddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti gumanitar fanlar fakulteti

2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7869929>

ARTICLE INFO

Received: 19th April 2023

Accepted: 26th April 2023

Online: 27th April 2023

KEY WORDS

Ijodkor, meros, tarbiya, aqidalar, zamona, yetuklik, samara, fazilat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Qo'riqxon" she'ri tahlilga tortilgan. Shu she'rning asosiy g'oyasi, uning yo'nalishi, miqyosi va ifoda xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ijodkorning voqea, kechinma, bayon uslubi, ichki nutqi, poetik til mahorati kabi tasvir vositalariga munosabati yorqin aks etganiga guvoh bo'lamiz.

Insonni anglash, inson shaxsini tahlil va talqin etishda bizda uzoq yillar ustivor bo'lgan ijtimoiy-axloqiy yondashish an'anasi davom etgani holda, sharq adabiyotining buyuk merosi diniy-islomiy aqidalar, tasavvuf falsafasi va estetikasiga qaytish zamonaviy she'riyatda o'z samarasini bermoqda.

Ma'lumki, kamolot-[arabcha "kamol" so'zining ko'pligi]

1. Yetuklik, mukammallik. Jismoniy kamolot. Ma'naviy kamolot. *Bunchalik kamolot, ayt-chi, kimda bor, kimda bor bunchalik latofat, husn.* A.Oripov. *Spartakiada sportchilarimiz uchun jismoniy kamolot ko'rigi bo'ldi.* Gazetadan.

2. Yuksalish, rivoj. *Xalqimiz o'z siyosiy-manaviy hayotining yangi kamolot bosqichiga ko'tarildi. "Guliston". Ha, u[Alimardon] kamolot pog'onalaridan tez, ishonch bilan ko'tarilib borardi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Sherali ham xuddi shu ahvolda, uning uchun insoniyat kamolotining cho'qqisi –Sabogul! S.Karomatov, Oltin qum.[1;67] –deb ta'rif beriladi O'zbek tilining izohli lug'atida.*

Darhaqiqat, Inson kamoloti badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u inson psixologiyasi va ichki ma'naviy olamini tadqiq etishga qaratilgan. Shaxs ruhiyati dinamik ravishda ijtimoiy turmush, kishilar munosabatlari taqozosi bilan o'zgarib, yangilanib boruvchi jarayon. Bu jarayonni tahlil qilish an'anaviy va zamonaviy tasvir tamoyillariga bab-baravar daxldordir. Inson adabiyotning asosiy tasvir obyekti ekanligi ma'lum va ilmda bu haqda e'tirof etilgan haqiqatdir.

Quyida Abdulla Oripovning "Qo'riqxon" she'rini tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz va inson shaxsini badiiy kashf etish, avvalo, o'sha tasvirdan ko'zlangan maqsad, uning yo'nalishi, miqyosi va ifoda xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ijodkorning voqea, kechinma, bayon uslubi, ichki nutqi, poetik til mahorati kabi tasvir vositalariga munosabatida yorqin aks etganiga guvoh bo'lamiz.



*Asraymiz o'simlik xillarin tayin,
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarin o'rab atayin
Qo'riqxonada deymiz so'ngra otini.
Sayoq ovchilarga u yon yo'l bo'lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo'ysin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.[2;78]*

She'ring sarlavhasini va boshini o'qigan odam bu bir qo'riqxonada haqidagi she' bolsa kerak deb taxmin qiladi. Haqiqatan, biz Qo'riqxonada eng noyob hayvon, qush va o'simlik turlarining yo'qolib ketmasligi uchun ularni asraymiz. Albatta, bunday maskanlarning qo'riqchi egalari bo'ladi, ular jonivorlarni yovuz odamlardan himoya qiladi. Lekin shoirning maqsadi qo'riqxonada to'g'risida xabar berish emas, aksincha she'rga har kimga tanish va ma'lum bo'lgan "Qo'riqxonada" degan sarlavhani qo'yib, uning qiqacha ta'rifini keltirgach, yana boshqa muhim narsa- insoniy qadriyatlar va fazilatlar haqida quyidagi misralarda so'z ochadi.

*Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.
Oqibatni asrang, oqibat go'yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan polapon misol.[3;90]*

Ison yuragida asrash kerak bo'lgan fazilatlardan biri bu- insof, ikkinchisi- oqibat, uchinchi esa hayo. Sababi pok niyatki, toza yurakli odamni toppish hamma zamonlarda ham qiyin bo'lgan. Shoir ushbu satrlarda sof qalbli insonni albatta asarash kerakligiga ishora qilyapti. Shuningdek, insonlararo munosabatlar uchun insof ham juda zarur fazilatdir. "insof yo'qolmasin" va u tojdor turna kabi kamyob bo'lmasin deb ta'kidlab o'tadi. Bularni qo'llash orqali shaxsni real yoxud ruhiy olam kontekstida talqin etish xususiyati yetakchilik qiladi. Lekin har ikkala holatda ham insoniy fazilatlar hal qiluvchi omil ekanligi ko'zga tashlanadi.

*Imonni asrangiz, u doim tanho,
undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to ,
Uni allaqanday Qor odam kabi.
Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.[4;91]*



Iymon va vijdon haqida yozilgan ushbu bandga alohida diqqat qaratish kerak. Chunki iymon insoniy fazilatlarining barchasini o'zida mujassam etadi. Allohga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, qiyomat kuniga, o'lgandan keyin qayta tirilishga ishonchdek juda ulkan haqiqat iymon tushunchasi bilan ifodalanadi. Iymonni asrash –bu dunyo va oxiratni asrash degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, shoir vijdon, ezgu, latif hislar ham himoya muhtojligiga urg'u beradi. Qolaversa, ushbu satrlarda manzara va hissiyotning majoziy uyg'unlashuvi suvratlangan. She'r ruhiy holatning inson tasavvuriga o'tkazgan shuuriy bosimi hosilasi sifatida maydonga kelgan. Tabiatni moddiylashtirishga moyillik shoir kechinmalarini ifodalash vositasiga aylangan.

*Ezgu, latif hislar bo'lmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor
Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
Og'zi qon yirtqichdan qanday farqi bor!
To'qayga o't ketsa yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg'iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
Yovuzlikdan zada qo'riqxonadir.[5;92]*

Yovuz qarashlar, yovuz kimsalar jamiyatni yemiradi. Xotirjam hayot uchun esa adolat zarur. She'r bamisoli dunyoni ham, inson qalbini ham yovuzlikdan asrashga oid ogohnomadek taassurot qoldiradi. "Qo'riqxonona" she'rini o'qishda moddiy dunyo bilan ma'naviy tushunchalar yonma-yon tavsiflanadi. Hayotiy tajribalaridan kelib chiqadigan bunday falsafiy mushohadalar Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos qirralaridan birini tashkil etadi.

References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati - K.pdf (ziyouz.com)
2. A.Oripov "Tanlangan asarlar". Toshkent.2000-y
3. Diss.natlib.uz.
4. www.ziyo.uz